



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 04 Nashr: 01 (2025)]

www.mudarrisziyo.uz

O'QUVCHILARGA YOSHLIKDAN XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA YANGI METODLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Habibullayeva So'g'diyona

C Samarqand Davlat chet tillar instituti filologiya yo'nalishi

1-bosqich 2403- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar o'rtasida turli tillarni o'rgatishda duch kelish mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, boshlang'ich sinf o'quvchilarini til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun yangi usullar, texnologiyalar va metodlar qo'llash to'g'risida so'z boradi. Ko'p tillarni o'rganish orqali ularni intellektual salohiyatini, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga eshishish va kelajakda sifatli kadrlarni tayyorlashda yangi texnologiyalar va zamonaviy o'qitish uslublarining qanchalik muhimligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tongue twister, multfilmlar va kinolar ko'rish, "Dancing and showing" texnikasi, "Make words" metodi, gapirish ko'nikmalarini oshirish. Rolga kirishish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni qiziqarli oshirish.

KIRISH: Hech kimga sir emaski, chet tillarini o'rganish kundan kunga zamon talabi bo'lib ulgurdi. Shuning uchun yurtimizda o'quvchilarga, nafaqat, maktab davridan balki bo'g'cha yoshidan boshlab o'rgatish allaqachon boshlangan. Bu masalada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan: "2023-yilda boshlab har yili Agentlikning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq Davlat budjeti parametrlarida Jamg'arma mablag'larini shakllantirish uchun zarur mablag'lar ajratish" to'g'risida qaror qabul qilindi. Shu boisdan yoshlarni bir nechta tilda so'zlashish qobiliyatini oshirish borasida o'qituvchilar zimmasiga qator vazifalar yuklatilgan. Xususan, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlarni yetishtirish har bir pedagogik sohaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, yosh bolalar kattalarga qaraganda eshitgan narsasini tezroq eslab qoladi. Chunki ular har doim "U nima?" "Bu nima uchun ishlatiladi?" "Nega bu narsaning rangi bunaqa?" deb tinimsiz kattalardan ma'lumot olishga harakat qiladi. Olimlarning aytishicha, biz butun umrimiz davomida bilgan, o'rgangan narsalarimizning beshdan bir qismini besh yoshimizgacha o'rganamiz ekan. Shu sababdan ham yoshlikdan xorijiy tillarni o'rganish ham vaqtni ham kuch va mehnatni tejatishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bolalarni yoshlikdan bazi bir kasalliklar-altsgeymer va xotiraning susayishi kabilardan ham himoya qilish ham yoshlikdan o'quvchilarga yangi til o'rgatishning eng katta afzalliklaridan biridir. Albatta, akademik darajadagi har qanday bilimlar bolalarni tez charchab qolishiga, bundan tashqari o'sha sohaga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda ko'proq fizikal o'yinlarga, keyinchalik esa mantiq va yozish orqali bajariladigan mashqlarga e'tibor berish lozim. Ushbu maqolada qanday qilib yosh o'quvchilarning "ishtaha" sini so'ndirmasdan ularga yangi tillarni o'rgatish va bu jarayonda qanaqa turdagi metodlar ish berishini ko'rib chiqamiz.

Metodologiya

"Dancing and showing" texnikasi. Bu metodda bolalar qo'shiqlarga raqsga tushishadi va qo'shiqda aytilgan so'zlarni qo'llari bilan ko'rsatishadi. Masalan, " Heads, shoulders, knees and toes" qo'shig'ini bolalarga o'rgatish ularga doimiy daftarlarga yozib so'zlarni yodlashdan ko'ra ko'proq so'zlarni o'rgatadi. U ham o'quvchilarga quvnoq kayfiyat bag'ishlaydi, qolaversa, o'zlariga sezdirmasdan yangi so'zlarni- tana a'zolarining inglizcha nomini o'rgatadi.

"Make words" metodi. Bunda o'qituvchi ko'plab harflarni kichik qog'ozchalarga yozib o'quvchilarni guruhlarga taqsimlaydi. Guruhlar ishtirokchilaridan so'zlar tuzish topshirig'i beriladi. Bu texnika ozroq eskirgan bo'lishi mumkin, lekin bu usul yosh o'quvchilarda so'zlarni to'g'ri yozilishi, yangi so'zlarni paydo qilish va, eng asosiysi, jamoa bo'lib ishlash, guruh mas'uliyatini his qilishga yordam beradi.

O'quvchilar biroz kattaroq bo'lishganda ingliz tilini baholashning asosiy to'rt kreteriyalari(speaking, reading, listening, writing)dan biri gapirish aspektini yaxshilashga qaratilgan mashqlardan biri tezatishlar ya'ni "Tongue Twitter"larni takrorlash tilda tezroq gapirish, talaffuzdagi xatolarni mashqlar orqali takrorlashni o'rgatadi. Sababi g'arb tillari, ayniqsa, ingliz tili talaffuzi o'zbek tilinikidan ancha farq qiladi va so'zlarni talaffuz qilish kichik yoshdagi bolalar uchun birmuncha qiyinchilik tug'dirishi tabiiy hol. Misol uchun:

1. Peter Piper picked a peck of pickled peppers.
2. She sells seashells by the seashore.q
3. How much wood would a woodchuck chuck if a woodchuck could chuck wood? kabi tezatishlar yodlash uchun unchalik ko'p vaqt va kuch talab etmaydi.

Bundan tashqari, yaqin yillardan boshlab xorijiy tillarni o'rgatishning asosiy ustuvor vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilar Amerika va g'arb texnologiyalaridan foydalanishni ma'qul ko'rishmoqda. Ya'ni o'quvchi qachonki o'zini subyekt sifatida tasavvur qilsa, shundagina u o'rganayotgan narsasini ko'proq eslab qoladi. Bu holatda quyidagi innovatsion metodlardan foydanish qo'l keladi:

- Hikoyani davom ettirish. Bunda o'qituvchi soddaroq hikoyani o'qib berib, eng qiziqarli joyida to'xtadi va o'quvchilardan ini davom ettirishni so'raydi. Bu metod nafaqat mantiqiy fikrlashni shakllantiradi, balki, jamoat oldida o'z fikrini trio bayon qilish va eshituvchi ha yetkazib berish va tushuntirish qobiliyatlarini bir me'yorda yaxshilaydi.

- Rolga kirishish. O'quvchilardan bir-ikkitasi tanlab olinib, ularga ma'lum bir ertak, yoki multfilm qahramonining ko'rishi tasvirlangan suratlar ko'rsatiladi. Ishtirokchilar o'sha qahramonning ismini aytmasdan guruhdoshlariga tushuntiradi. Bu metodni tez-tez takrorlash ham biroz kattaroq sinfda speaking (gapirish) va listening (tinglab tushunish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

- Qisqa multfilmlar va kinolar qo'yib berish. Bolalarga o'zlari o'rganayotgan tilda kino va multfilmlarda tilni o'rgatish tildagi yangi strukturalarni va so'zlarni o'rgatibgina qolmay, yangi xalqning madaniyati, urf-odatlar va turmush tarzi terisida ham ma'lumot beradi. Ammo darsning davomiyligi o'ttiz yigirma besh daqiqadan oshmasligi lozim. Aks holda bolalar tez beriladi va charchab qoladi. Til – bu madaniyatning bir qismi. Yangi tilni bilish o'quvchilarni boshqa xalqlar urf-odatlar, san'ati va tarixiga yaqinlashtiradi va qiziqishini oshiradi. Bu esa dunyoni kichik yoshdan ko'proq kashf etishga va tassavur qobiliyatini kuchaytirishga katta yordam beradi.

Natija

Yosh o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy metodlarni qo'llash, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada ta'kidlangan “Dancing and showing”, “Make words” va “Tongue twister” kabi metodlar bolalar uchun til o'rganish jarayonini yanada oson va interaktiv qiladi. Bu metodlar orqali bolalar tilni o'rganishda nafaqat yangi so'zlarni yodlashadi, balki ularni kundalik hayotda ishlatishga o'rganishadi. Shuningdek, ushbu metodlar o'quvchilarda jamoa ishlashini rivojlantirishga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar bilan ishlashda o'qituvchining ijodkorligi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash, ta'lim jarayonini yanada jonlantiradi. “Tongue twister” va “rolga kirishish” kabi mashqlar esa o'quvchilarning gapirish va tinglash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qisqa multfilmlar va kinolarni tomosha qilish esa o'quvchilarning tilni o'rganishdagi qiziqishini oshiradi va ular uchun yangi madaniyatlarni o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bularning barchasi bolalar uchun xorijiy tillarni o'rganishni qiziqarli va foydali qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar orqali biz kelajakda polyglot mutaxassislar tayyorlashga erishishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida, yoshlarni global dunyoda muvaffaqiyatli va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Munozara

Yosh bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida zamonaviy metodlar va yondashuvlar qo'llashning afzalliklari katta. Birinchi navbatda, bolalar kichik yoshda yangi tilni o'rganishga ko'proq mos keladi, chunki ular doimiy ravishda atrof-muhitdan yangi bilimlar olishga intilishadi. “Dancing and showing” kabi interaktiv metodlar esa bolalar uchun tilni o'rganishni o'yin va faoliyatga aylantiradi, bu esa ularning qiziqishini oshiradi va darslarda faol ishtirok etishlariga olib keladi. Bunday metodlar yordamida bolalar tilni nafaqat eshitish orqali, balki vizual va harakat orqali ham o'rganadilar, bu esa ularning yodlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, “Make words” va “Tongue twister” metodlari o'quvchilarga tilning grammatika va talaffuz jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, bunday metodlarni qo'llashda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, ba'zi o'qituvchilar uchun yangi texnologiyalarni va metodlarni

o'rganish va ulardan samarali foydalanish ba'zan qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash, darslarning individual va guruh ishlarini muvofiqlashtirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy metodlarni qo'llash bolalarga xorijiy tillarni o'rganishda katta yordam beradi, ammo o'qituvchilarning pedagogik mahorati va zamonaviy metodlarga tayyorligi ham muhim omil hisoblanadi. Yangi metodlarni qo'llashda diqqatli va ijodkor bo'lish zarur, chunki bu o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan ishtahalarini saqlab qolish va yanada rivojlantirishga yordam beradi..

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'quvchi-yoshlarga xorijiy tillarni yoshlikdan o'rgatishda ko'plab metod va texnikalarni qo'llash mumkin. Bu, asosan, o'qituvchining pedagogik qobiliyati va yaratuvchanligiga bog'liq. Qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarni fanga qiziqitirish va yangidan yangi estafetalar orqali o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu bilan biz kelajakda har tomonlama yetuk va bir nechta tilda bemalol so'zlasha oladigan polyglot kadrlarni jamiyatga yetkazish beramiz. Zero, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash har bir pedagogning burchidir.

Adabiyotlar.

1. Bahrom O'rolov Asadbek Jamolov. www.in-academy.uz
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovich raisligida 2022-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yig'ilishi. Lex.uz sayti
3. Tahlil. Kembrij: Kembrij Universiteti Matbuoti, 1986. 123-124-betlar
4. Kuk V. J. ikkinchi tilni o'rganish va tillarni o'qitish. To'rtinchi nashr. Hodder ta'lim. 32 bet
5. Jennifer Herrity. Tinglash Qobiliyatingizni Oshirishning 10 Usuli. 18.09.2024. 21-bet
6. Xudoyorova Gulasal Ilhomiddin qizi. SamDChTI filologiyasi fanini o'qitish usuli 1-kurs talabi Ingliz tilida gap ochish usuli rivojlantirish usullari.
7. Anvarova, F. (2023). Birinchi o'rganuvchilarda ingliz tili o'qitish pedagogika usullari. Farg'ona Davlat universiteti ilmiy jurnali.
8. Ey, Y. (2020). Qo'shma ingliz tili o'qituvchilari innovatsion faoliyatini tashkil etish nazariy-uslubiy asoslari. 2022-yil, 3-o'g'il (133/1) aniq fanatlar seriyasi.
9. Jo'rayeva, M. (2022). Tilda zamonaviy yondashuvlar. Jamiyat va innovatsiyalar.
10. Gulamkadirovna, K. Z., Abatbayevna, E. G., Raximjanovna, A. R., Shavkatovna, R. D., & Usmonqulovna, T. K. (2020). Chet Tillarini O'qitishning Innovatsion Usullari. Xalqaro ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 6, 13-20.
11. Nazarova, L. (2024). Chet tillarini O'qitishda zamonaviy texnik vositalarning o'rni. Tamaddun Nuri Jurnali.
12. Dilrabo Qodirjanovna, A., Dildora Maxammadjonovna, S., & Xushnoza Muxtorali qizi, A. (2019). Chet tillarini o'qitishning zamonaviy usullarining xususiyatlari. Integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha xalqaro jurnal.
13. Doniyorovich, A. Z. (2024). Yangi Uzbekistan yoshlarining kasbiy yo'nalishi: yoshlar orasida chet tillarini o'rganishni ommalashtirish, yangi davr sari. Xalqaro biznes, huquq va Siyosatshunoslik jurnali.



14. Babajanova, D. (2021). O'zbekistonda Xorijiy Tillarni O'rganish uchun Yangi imkoniyatlar. Tarixning hozirgi tadqiqot jurnali.
15. F. G. (2018). Erta yoshda chet tilini o'rganishning afzalliklari. Xalqaro ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 11, 132-137.